



SHARQ MUTAFAKIRLARINING IJOD HAQIDAGI FIKRLARINING TAHLILI

Yermekbaeva X.

Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Tayanch soʻzlar: shaxs, maʼnaviy meros, ijod, ijodiy faoliyat, aql, fan, taʼlim-tarbiya.

Ключевые слова: личность, духовное наследие, творчество, творческауа деуателност, разум, наука, образование.

Key words: personality, spiritual heritage, creativity, creative activity, mind, science, education.

РЕЗИОМЕ:

Maqolada Sharq mutafakirlarining ijod haqidagi fikrlarining tahlili ilmiy asosda koʻrib chiqilgan.

РЕЗИОМЕ:

В статье на научной основе анализируются мысли восточных мыслителей о творчестве.

SUMMARY:

The article analyzes on a scientific basis the thoughts of Eastern thinkers about creativity.

Mamlakatimiz taʼlim tizimida roʻy berayotgan ulkan oʻzgarishlar iqtidorli yoshlarga boʻlgan munosabatni ham tubdan oʻzgartirdi. Isteʼdodli va iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularni moddiy va maʼnaviy qoʻllab-quvvatlash hamda ularning qobiliyatlarini rivojlantirish uchun barcha pedagogik-psixologik shart-sharoitlar yaratishning Respublika tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taqozo etmoqda.

Shaxs ijodkorligi Sharq maʼnaviy merosida (Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abdulla Avloniy kabi mutafakirlar) yetuklik va kamolotga erishishda muhim xususiyat sifatida talqin etiladi. Jumladan, maʼrifatparvar olimlardan biri Abdulla Avloniyning ilm, ijod va maʼnaviy hamda jismoniy komillikka, maqsadga erishmoqlikning asosiy shartlaridan biri sifatida saʼy va gʻayratni koʻrsatadilar. «Bir ishga mashgʻul boʻlgan kishilar vaqtning oʻtganini bilmas, yalqov kishilar uchun bir soat oʻtkarmak qiyomatdan qiyindur. Gʻayrat vujudimizga quvvat masʼud va baxtiyor boʻlishimizga sababdur. Shuning uchun har birimiz saʼy qilub, oʻz kuchimiz ila maishatimizga kerak boʻlgan narsalarni topub, boshqalarga muhtoj boʻlmay rohatga yashamoq lozimdur. Sihatimiz,

saodatimiz, sarvatimiz, qanoatimiz, sabrimiz, fazilatimiz, alhosil, butun hayotimiz harakatimizga bog‘liqdur. Harakatlik kishilar tezgina maqsudlariga yeturlar. Yalqov kishilar har narsadan mahrum, doim boshqalarning yordamiga muhtoj bo‘lib xorlikda qolurlar» [1].

Sharq va G‘arb ilmiy tafakkurining shakllanishida o‘z ta‘sirini o‘tkazgan buyuk allomalardan biri Abu Nasr Forobiyning «Aql va fan haqida» nomli risolasida tug‘ma aqlning tadrijiy takomili haqida quyidagilar ta‘kidlanadi: «Tug‘ma aql shunday aqlki, u insonga dastlabki nazariy bilimni sezgilar voistasida hosil qilish imkonini beradi. Aqlning ikkinchi turi esa qalbning shunday qismiki, mazkur qism muttasil takrorlash, muayyan narsalarda qandaydir mashg‘ulotlar bajarish orqali ma‘lum vaqt oralig‘ida amaliy malaka va hayotiy tajriba hosil qilish asosida nimani ma‘qul ko‘rish hamda nimadan o‘zini saqlash xususida ishonchli ilmiy ibtido va mushohadali bilim hosil qilish imkoniyatini yaratadi» [2].

Sharqda «Muallimi soniy» (Ikkinchi muallim) nomi bilan mashhur Abu Nasr Forobiy ta‘lim-tarbiyaga birinchi marta ta‘rif bergan buyuk olim hisoblanadi. Ulug‘ mutafakkir ta‘limda barcha fanlarning nazariy asoslari o‘rganilsa, tarbiyada jamiyatning ma‘naviy-axloqiy qoidalari, odob me‘yorlari o‘quvchilarga singdiriladi, kasb-hunarga oid ko‘nikmalar hosil qilinadi, degan g‘oyani ilgari suradi. Bu muhim vazifa mahoratli tarbiyachilar tomonidan ta‘lim-tarbiyaning turli xil metodlari yordamida amalga oshiriladi, deb uqtiradi. Alloma o‘qituvchining faoliyati haqida to‘xtalib shunday yozadi: «O‘qituvchining vazifasini dono davlat rahbari vazifasiga o‘xshab ketadi. Shu sababli o‘qituvchi ko‘rgan va eshitganlarining barchasini yaxshilab esda saqlab qolishi, bilmog‘i, aql farosatiga, chiroyli nutqqa ega bo‘lmog‘i va o‘quvchilarning aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini to‘la va aniq ifodalay olishni bilmog‘i zarur, o‘qituvchi faqat fan bilan shug‘ullanib qolmay, balki o‘z bilimlarini o‘quvchilarga ham berishi, bunda mashaqqatli mehnatdan charchash nimaligini bilmasligi lozim. O‘qituvchi ichishdan o‘zini tiyishi, haqiqatgo‘y bo‘lib yolg‘onni va yolg‘on aytganni yomon ko‘rishi, g‘ururli bo‘lishi va o‘z or-nomusini qadrlashi, o‘zining o‘quvchilariga nisbatan adolatli bo‘lishi, ko‘zlangan oliy maqsadiga erishishda qat‘iylik ko‘rsata bilishi lozim». Forobiyning ta‘kidlashicha, bunday insoniylikning yuksak darajasiga ega bo‘ladi va baxt cho‘qqisiga erishadi. Bu esa har qanday xatarli harakatdan xabardor bo‘lganligi tufayli baxtga erisha oladigan odamlardir [2].

Tadqiqotchi M.M.Xayrullaev Forobiyning gnoseologik qarashlarni chuqur tahlil qiladi, undagi Aristotel ta‘sirida yuzaga kelgan yondashuvlarning yangicha talqin etilganini, mazkur meros Markaziy Osiyo tarixida, tafakkurida



eng muhim voqelik bo'lganini ochib beradi. Forobiy asarlarida ilm, bilish, aql-quvvatlari, his-tuyg'ularning aqlu idrokka ta'siri masalalari chuqur taxlil qilinib yoritilgan. Uning fikricha, «insonning bilishini, ruhiy qobiliyatlarini miya boshqaradi», tabiatni bilish cheksizdir, bilimsizlikdan bilishga boriladi, sababiyatni bilishdan oqibatni bilishga, (al-oraz) aksidensiyadan (javhar) mohiyatga qarab borishi orqali ilm, bilish ortib boradi, ilm egallash «tashqi quvvatlar» ta'sirida va «ichki quvvatlar» (esda saqlash, hayol, ong, xotira, tasavvur, his-tuyg'u, mustaqil fikrlash) orqali hosil qilinadi [7].

O'z davrida Sharq va G'arb ilmiy dunyoqarashini umulashtira olgan vatandosh allomalarimizdan yana biri Abu Ali ibn Sinoning fikriga ko'ra, «Xotira quvvati hissiyotning hukmdori, uning xazinaboni esa his-tuyg'udir. Xudi shuningdek, tasavvur xayolotning hukmdori, uning xazinaboni xotiradir. Bular birgalikda tafakkur (aql) quvvatini tashkil qiladi. Fikrlash orqali aql quvvati harakatga keladi. Biroq, erkin fikrlash aql bilan bog'liqdir, hissiyot bilan emas. Masalan, insonning biror narsaga ko'zi tushganda uning hissiy obrazi namoyon bo'ladi. Biroq ushbu hissiy obraz narsaning abstrakt mohiyatini emas, balki narsaning umumiy shaklini taqozo etadi. Shuning uchun ham kuzatilayotgan narsa ko'zdan g'oyib bo'lganda, hissiy shakl ham yo'qoladi. Ana shu jihat hissiy a'zolarining faoliyati tuyg'ular hosil qilish bilan cheklanishidan dalolat beradi. Hissiy obrazning xotiradan mustahkam o'rin egallashi uchun u tasavvurga aylanishi lozim, zero narsaga oid hissiy obrazni tasavvur gavdalantiradi. Narsa haqida to'laqonli ma'lumot esa, barcha hissiy a'zolarining narsa bilan tugal bog'lanishi va u haqida taassurot shakllanishi bilan bog'liq. Binobarin, bunday bog'lanish natijasida taassurot fikriy obrazga aylanadi. Oqibatda narsa haqida tajriba va mulohazaga asoslangan nazariy bilim, tushuncha hosil bo'ladi» [3].

Qadimdan madaniyat va ma'rifat beshigi bo'lgan Termizdan dunyo e'tirof etgan bir necha buyuk allomalar yetishib chiqqan. Abu Iso Termiziy ham ana shunday olamshumul allomalardan biri hisoblanadi. Iso Termiziy fenomenal xotira, ya'ni idrok qilingan narsalarni, ularning bog'lanish munosabatlarini favqulodda tez va aniq esda qoldirish hamda esga tushirishga qaratilgan nodir qobiliyat sohibi bo'lgan [4].

«Ilmning ofati unutishdir. Uni noahil kishiga gapirish esa uni zoe qilishdir» mazmunidagi hadis orqali o'zlashtirilgan ilmni takrorlab borish, faqat chuqur va puxta bilimlargagina ega bo'lgan kishilarning atrofda qilargana ilm berishning maqbul ekanligiga urg'u beriladi. Shuningdek, ilmning kishilarni fahm-farosatli, o'tkir zehnlil, zukko hamda xotirani kuchli qilishdagi ahamiyati ham ta'kidlanadi.

Iso Termiziyda quyidagi irodaviy sifatlarni ko'rish mumkin [5]:

maqsad sari intilish, ya'ni o'zidagi bor kuch-quvvatni o'z maqsadiga yo'naltirish;

har xil muammoli vaziyatlarga chidamlik, issiq va sovuqqa, ochlik va tashnalikka, betoblikka hamda boshqa qiyinchiliklarga bardoshli bo'lish;

qat'iyatlilik, har xil muammoli vaziyatlarda hech ikkilanmay maqbul qaror qabul qilish va o'z fikrida mustaqil turish;

sabotlilik, to'g'ri deb qabul qilgan qarorni amalda bajarish;

intizomlilik, jamiyatning mavjud qoida va qonunlariga, adob-axloq me'yorlariga bo'ysunish.

Iroda ilmiy nuqtai nazardan nazariy bilimlar, his-tuyg'ular, tafakkur kabi psixologik to'yfalar bilan uzviy aloqada bo'lib insonning individual kundalik turmush sharoitida va ijtimoiy hayotida takomillashib boradi. Ana shu takomillashuv Iso Termiziyning haqiqiy har tomonlama komil inson bo'lib yetishishiga sabab bo'ladi [6].

Adabiyotlar:

1. Avloniy, Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. –Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2018. – B. 20.
2. Ал Фараби. О разуме и науке. –Алма-ата, 1975. –С. 7-9.
3. Ибн Сина (Авиценна). Избранные философские произведения. –Москва, 1980. –С. 215-217.
4. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. Ped. fan. dokt. diss. – Toshkent: 1993. – 364 b.
5. Nishonova S. Sharq uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi: ped. fan.dokt...diss. –Toshkent, 1998. -288 b.
6. Tursunov S. Termiziy buyuk siymolar. –Toshkent: Sharq, 2002. –B.49
7. Xayrullaev M.M. Abu Nasr Forobiy // Buyuk siymolar, allomalar. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1995. –B.37.